O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ 344
2019 yil «___» _____

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Prof.A.Soleev
_______________
«___» _______ 2019 yil

"SHAHARLAR GEOGRAFIYASI"
FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

(3-курс учун)

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Gumanitar soha |
| Ta'lim sohasi: | 140000 – Tabiiy fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5140600 – Geografiya |

| | |
|---|---|
| Ma'ruza: | 36 soat |
| Amaliy mashg'ulot: | 36 soat |
| Mustaqil ta'lim: | 50 soat |

Samarqand-2019

Fanning ishchi o'quv dasturi, namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar**:

Usmonov M.R. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.
Ibragimov L.Z. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

Raxmatullayev A. – SamDU Gidrometeorologiya kafedrasi professori, g.f.d.

Alibekov L.A. – SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi professori, g.f.d.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasining 2019 yil __ _________dagi №_ son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** **dots. Kadirov M.A**

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil ___ ____________dagi №__-sonli bayonnoma)

**Fakultet uslubiy kengashi raisi** **dots. T.J. Jumaboev**

**Fakultet dekani** **dots. L.Z.Ibragimov**

**Kelishildi:**
**O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i** **dots.B.Aliqulov**

2

## Kirish

SHaharlar geografiyasi yoki geourbanistika iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida tarmog‘i bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarining geografiya yo‘nalishi talabalari uchun o‘qitiladi. Fan shaharlar to‘ri va tizimlari rivojlanishining tarixiy-geografik, sotsial, iqtisodiy-geografik, shaharsozlik jihatlarini o‘rganishga, urbanizatsiyaning murakkab, zamonaviy global xarakterini ochib berishga, shaharlar va ularning tizimlarining rivojlanish strategiyasi geografik jihatlarining mazmuni va ahamiyatini, shaharlarni joylashtirish, rivojlantirish, loyihalash va boshqarish asoslarini o‘rganishga qaratilgan.

## O‘qitish maqsadi va vazifalari

Mazkur fanning o‘qitilishidan maqsad geografiya mutaxassisligi talabalariga shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi va joylashuv qonuniyatlari hamda xususiyatlariga oid nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

## Fanning asosiy vazifasi:

- “shahar”tushunchasining mazmun mohiyatini ochib berish;
- fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari, asosiy tamoyillari, qonuniyatlarini o‘rganish;
- shaharlarning ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi o‘ziga xos o‘rni, mamlakat va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati haqida nazariy va amaliy bilim berish;
- fandagi asosiy tushuncha, atama, terminlarning ma’nosini bilish;
- turli mintaqa va hududlarda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga iqtisodiy geografik baho berishni o‘rganishdan iborat.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“SHaharlar geografiyasi” fanini o‘rganish jarayonida talabalar oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- fanning asosiy tushuncha, atama, termin, g‘oya, usul, manba, nazariya, qonuniyatlarini bilishi;
- shahar aholi manzilgohlarini shakllanish, joylashish, rivojlanishining geografik jihatlariga oid nazariy bilimlarni bilishi, tushuntira olishi, amaliyotda qo‘llay olishi;
- fanga tegishli bo‘lgan statistik ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish, tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara olish malakalariga ega bo‘lishi lozim.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

SHaharlar geografiyasi fani umumkasbiy fan hisoblanib, talabalarga 7-semestrda o‘qitiladi. Mazkur dasturda belgilangan talablarni amalga oshirish uchun ular o‘quv rejada ko‘rsatilgan matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy fanlardan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

## Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Mazkur fan ilmiy-tadqiqot va loyihalash institutlariga, oliy, o‘rta maxsus, umumta’lim tizimi muassasalariga, ishlab chiqarish va boshqaruv tashkilotlariga malakali geograf mutaxassislarni tayyorlashda muhim axamiyatga ega bo‘lgan bilimlar beradi. U asosiy umumkasbiy fani hisoblanib, yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlash tizimining ajralmas bo‘g‘inidir.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Kurs bo‘yicha informatsion ta’minotni dasturda ko‘rsatilgan asosiy va qo‘shimcha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, elektron manbalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar, statistik ma’lumotlar va Internet ma’lumotlari tashkil etadi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida fanga tegishli bo‘lgan tarqatma materiallar, karta, chizma va jadvallar, slaydlardan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy usullari, yangi pedagogik va axborot – kommunikatsiya vositalari qo‘llanilishi mo‘ljallangan. Dasturdagi barcha ma’ruza mavzularini o‘tishda ta’limning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Bumerang”, “Elpig‘ich”, “Aqliy xujum”, “Masofaviy

ta’lim”, “Zanjir”, “Klaster” hamda “Muammoli ta’lim” texnologiyasining “Munozarali dars” kabi usullarini qo‘llash o‘rinlidir.

**SHaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum birta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim**. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini,dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. “SHaxarlar geografiyasi” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog‘idagi rasmiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

**SHaxarlar geografiya fanidan mavzular va saotlar bo‘yicha taqsimlanishi:**

| № | Mavzular nomi | Jami soat | Maruza | Amaliy mashg‘ulot | Mustaqil ta’lim |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | Kirish. SHaharlar geografiyasining ob’ekti va predmeti, tadqiqot usullari | **2** | **2** | | |
| **2** | SHaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi | **2** | **2** | | |
| **3** | SHaharlarning rivojlanish bosqichlari | **2** | **2** | | |
| **4** | SHahar hosil qiluvchi asosiy omillar | **2** | **2** | | |
| **5** | SHaharlar klassifikatsiyasi | **2** | **2** | | |
| **6** | SHaharlar funksiyalari | **2** | **2** | | |
| **7** | SHaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari | **2** | **2** | | |
| **8** | SHaharsozlik va shaharlarning bosh rejasi | **2** | **2** | | |
| **9** | Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari | **2** | **2** | | |
| **10** | O‘zbekiston shaharlari geografiyasi | **2** | **2** | | |
| **11** | Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari | **2** | **2** | | |
| **12** | Farg‘ona mintaqasi shaharlari | **2** | **2** | | |
| **13** | Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari | | | | |
| **14** | Zarafshon mintaqasi shaharlari | **2** | **2** | | |
| **15** | Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari | **2** | **2** | | |
| **16** | Quyi Amudaryo rayoni shaharlari | **2** | **2** | | |
| | **Jami** | **32** | **32** | | |
| | **Amaliy mashg‘ulotlar** | | | | |
| 1 | SHaharlarning geografik o‘rniga iqtisodiy geografik baxo berish | | | 2 | |
| 2 | Jahon shaharlarining genetik tipologiyasini tuzish va izohlash. | | | 2 | |
| 3 | SHaharlar shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni aniqlash | | | 2 | |
| 4 | O‘zbekiston shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash | | | 2 | |
| 5 | O‘zbekiston shaharlari piramidasini tuzish | | | 2 | |
| 6 | O‘zbekiston va viloyatlar shaharlarini funksiyalariga ko‘ra guruhlash | | | 2 | |
| 7 | O‘zbekiston shaharlarini funksional tiplarga ajratish | | | 2 | |
| 8 | Jahon poytaxt shaharlarini o‘rganish va xaritadan aniqlash | | | 2 | |
| 9 | Jahonning yirik shahar aglomeratsiyalarini aniqlash va katta-kichikligiga ko‘ra guruhlashtirish | | | 4 | |
| 10 | O‘zbekiston yirik va katta shaharlari aholisining o‘sish dinamikasini chizmada tasvirlash va tushuntirish | | | 2 | |
| 11 | Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari | | | 4 | |
| 12 | Jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasini aniqlash va tiplarga ajratish | | | 2 | |
| 13 | O‘zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini yillar | | | 2 | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | bo‘yicha o‘zgarishini chizmada tasvirlash va tahlil qilish | | | | |
| 14 | “Siz kelajak shaharlarini qanday tasavvur qilasiz?” mavzusida “optimal” shahar sxemasini chizish. | | | 2 | |
| 15 | O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari shaharlari | | | 2 | |
| 16 | O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar shaharlar zichligini aniqlash | | | 4 | |
| 17 | O‘zbekistonning yangi shaharlari | | | 2 | |
| | **Jami** | | | **40** | |
| | **Mustaqil ta’lim** | | | | |
| 1 | SHahar tashkil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi omillar | 2 | | | 2 |
| 2 | SHaharlarning vujudga kelishida geografik o‘rinning roli | 4 | | | 4 |
| 3 | SHaharlarning genetik tipologiyasi | 4 | | | 4 |
| 4 | SHaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan shug‘ullangan olimlarning ilmiy ishlari | 4 | | | 4 |
| 5 | SHaharlarning funksiyalari va funksiyalariga ko‘ra tiplari | 2 | | | 2 |
| 6 | O‘zbekiston shaharlarining funksional tipologiyasi | 4 | | | 4 |
| 7 | SHaharlar klassifikatsiyasi va shaharlari piramidasi, uning shaharlarni rivojlantirishda tutgan o‘rni | 2 | | | 2 |
| 8 | O‘zbekistonning yirik, katta, o‘rta va kichik shaharlari | 4 | | | 4 |
| 9 | N.N.Baranskiyning shaharlar rivojlanishiga qo‘shgan hissasi | 2 | | | 2 |
| 10 | SHaharlarning hududiy tarkibi va bu borada olimlarning qilgan ishlari | 2 | | | 2 |
| 11 | SHaharlarni joylashtirish sxemalari | 2 | | | 2 |
| 12 | SHaharlarning hududiy tizimlari | 4 | | | 4 |
| 13 | Jahon urbanizatsiyasi va uning mintaqaviy xususiyatlari | 4 | | | 4 |
| 14 | O‘zbekistonning yangi shaharchalari va ularning rivojlanish muammolari | 2 | | | 2 |
| 15 | O‘zbek olimlarining shaharlar rivojlanishi muammolariga qo‘shgan hissasi | 2 | | | 2 |
| | **Jami** | **108** | **32** | **40** | **36** |

### Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (maruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosida tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DS asosida etkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak. Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamra olishi hamda qan va texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari etiborga olinishi tavsiya etiladi.

## MARUZA MASHG‘ULOTLARI

### SHaharlar geografiyasining ob’ekti va predmeti, tadqiqot usullari

SHaharlar geografiyasi ijtimoiy va iqtisodiy geografiyaning alohida qismi bo‘lib, u turli mamlakat va rayonlarda shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishidagi qonuniyatlar, shaharlarning hududiy taqsimlanishi, ularning shakllanishidagi xususiyatlarni o‘rganuvchi fan

ekanligi; shaharlarning ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etilishida tutgan o‘rni, vazifalari haqida.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *muzyorar,pinbord, nilufar guli, menyu,munozara,*
Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4;

## SHaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi

SHaharlarning vujudga kelishida tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar, «shahar» tushunchasi va asosiy mezonlari, ushbu tushunchaning turli davr va jahon mamlakatlarida bir hil emasligi. Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi, Evropa, Osiyo (SHarq), Amerika mamlakatlarida shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy xususiyatlar. Er yuzidagi sivilizatsiya o‘choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo‘lgan makonlar.

## SHaharlarning rivojlanish bosqichlari

Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi, Evropa, Osiyo (SHarq), Amerika mamlakatlarida shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy xususiyatlar. Er yuzidagi sivilizatsiya o‘choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo‘lgan makonlar..

## SHahar hosil qiluvchi asosiy omillar

SHaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omillar. SHaharlarning genetik tipologiyasi. SHaharlarning vujudga kelishida geografik o‘rinning roli. SHaharlarning iqtisodiy geografik o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy o‘zgaruvchanligi; makro, mezo va mikro geografik o‘rin. SHaharlarning transport, iqtisodiy, demografik, siyosiy geografik o‘rni. Bozor iqtisodiyoti va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida shaharlar rivojlanishi.
Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, munozara, o‘z-o‘zini nazorat*
Adabiyotlar: A1;A2;Q1;Q2;Q3;Q4;

## SHaharlar klassifikatsiyasi

SHaharlarning klassifikatsiyasi: oddiy va murakkab klassifikatsiya; o‘rta va kichik shaharlar, shahar va shaharchalarning 8 bosqichga bo‘linishi. BMT klassifikatsiyasi. SHaharlar klassifikatsiyasininig ahamiyati va mazmuni. SHaharlar piramidasi. Uning asosida mamlakat shaharlari rivojlanishidagi asosiy muammolarni aniqlash. O‘zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqalash, shaharlar ierarxiyasi. Zipfa-Styuart qonuni, shaharlarni rivojlantirishda uning ahamiyati, “millioner shaharlar”.
Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli,*
Adabiyotlar: A1;A2;Q2;Q3;Q4;

## SHaharlarning funksiyalari

SHaharlarning funksiyalari, funksional o‘xshash jihatlari va farqlari, shaharlarning funksional tiplari va katta-kichikligi o‘rtasidagi qonuniy aloqadorlik. SHaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko‘p funksiyali shaharlar, keng tarmoqli sanoat markazlari, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan va boshqa sohalarga ixtisoslashgan shaharlar. O‘zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo‘yicha guruhlarga ajratilishi. Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo‘yilgan talablar. Poytaxt shaharlar muammolari. Poytaxt shaharlar geografik o‘rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati. Global shaharlar. Global shaharlarni ajratish, tasniflash (S.Sassen, V. Bluka va b. ishlari). Global shaharlarning jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni va rivojlanish muammolari. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida shaharlar funksiyalarining o‘zgarishi.
Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, bingo, bliz, nilufar guli,*
Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4;

## SHaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari

SHaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. Aglomeratsiya “yadrosi” va “yo‘ldosh shahar”haqida tushuncha. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. SHaharlarning dinamik rivojlanish modellari (J.Forrester, K.Doksiadis, N.Ladovskiy va b.). Konurbatsiya va megapolislar. Megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. Jahonning yirik megalopolislari, ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo‘llari.

O‘zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. Toshkent aglomeratsiyasi. O‘zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolari. Yirik shahar tizimlarining iqtisodiy, sotsial, ekologik, demografik, transport, shahar qurilishi va boshqa muammolari, ularni hal etish usullari. SHahar aglomeratsiyalari - o‘ziga xos sotsial, innovatsiya, infratuzilma, iqtisodiy, geoekologik va nozogeografik muhit sifatida.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *munozara, o‘z-o‘zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4;

## SHaharsozlik va shaharlarning bosh rejasi

SHaharsozlik va rayon planirovkasi haqida tushuncha. SHaharlarning Bosh rejasi, uni tuzishdagi asosiy vazifa va maqsadlar. SHaharsozlik g‘oyalarining rivojlanishi: shahar va shahar aglomeratsiyalarini joylashtirish va rivojlantirish sxemalari ( V.Kristaller, A.Lyosh, Izard, X.Xagget, Kol, X.Xoyt, P.Polyan va b. modellari), shahar planlari (Katta London, Katta Parij, Tokio, Katta Toshkent va b.)

SHahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Hududni funksional zonalarga ajratish. SHahar aholisini hududiy tashkil etish. SHaharda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini joylashtirish.”Optimal shahar”; yirik shahar va aglomeratsiyalarni hududiy kengayishini nazorat qilish, tartibga solish va bashorat qilish. Bozor munosabatlari sharoitida shahar qurilishi masalalari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, munozara, o‘z-o‘zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;Q2;Q3;Q4.

## Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari

Urbanizatsiyaning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligi, asosiy va yordamchi ko‘rsatkichlari (V.Pokshishevskiy, B.Garne, E.Persik va b.larning qarashlari). D.Djibbsning urbanizatsiyani “bosqichli rivojlanish” sxemasi. Evropa mamlakatlaridagi klassik urbanizatsiya va sharqona urbanizatsiya, “real” va “soxta urbanizatsiya” tushunchasi, jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasiga ko‘ra guruhlanishi. Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari. O‘zbekistonda urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bugungi holati, muammolari, uning hududiy xususiyatlari, A.Soliev, O.Ota-Mirzaev, A.Qayumov, Z.Rayimjonov, E.Ahmedov va boshqalarning O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va shaharlar rivojlanishiga qo‘shgan hissalari. Urbanizatsiya va geoekologiya.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *diologik yondoshuv, munozara, o‘z-o‘zini nazorat*

Adabiyotlar: A1;A2;Q2;Q3;Q4.

## O‘zbekiston shaharlari geografiyasi

O‘zbekistonning turli mintaqalarida shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. O‘zbekiston shaharlarining shakllanishida relef, iqlim, gidrografik omillar.O‘zbekiston shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shaharlar bilan ta’minlanishi. SHahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Viloyat shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash. YAngi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari. O‘zbekiston va uning hududlarida urbanizatsiya jarayoni, uning rivojlanish bosqichlari. Respublikada shaharlarni hududiy tashkil etish, takomillashtirish va shahar qurilishi masalalari. Yirik shaharlarning planlari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari**

Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalari tarkibi va tavsifi, shaharlashish darajasi, shakllanish tarixi. SHaharlar vujudga kelishidagi asosiy shart-sharoit va omillar, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida “havza” omili (CHirchiq va Ohangaron havzasi shaharlari), “poytaxtlik” omili. Iqtisodiy rayon shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi. SHahar hosil qiluvchi tarmoqlari. Toshkent shahrining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, ilmiy-texnik, innovatsion, ishlab chiqarish va demografik salohiyati. Toshkent aglomeratsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. Angren maxsus industrial zonasining shahar rivojlanishiga ta’siri.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**Farg‘ona mintaqasi shaharlari**

Farg‘ona mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o‘rni. SHaharlar tarkibi va tavsifi. Tarixiy shakllanish bosqichlari. SHaharlar shakllanishida tog‘oldi konussimon deltalarning roli. Rayonning shaharlar bilan ta’minlanish darajasi, shaharlar tasnifi, ixtisoslashuvi. Vodiy shaharlari ierarxiyasi, “yuzminglik shaharlar”. Andijon, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlari planlari. Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlari**

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni tavsifi, maydoni, aholisi, shahar va shaharchalari. SHaharlar vujudga kelishida cho‘lning o‘zlashtirilish omili, “eski” va “yangi” shaharlar, “resurs” shaharlari. Rayon shaharlarining rivojlanishida Jizzax maxsus erkin iqtisodiy zonasining roli. Viloyat va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni shaharlarining rivojlanish muammolari va istiqbollari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**Zarafshon mintaqasi shaharlari**

Zarafshon iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalar soni, ularning o‘zgarishi, tashkil topish vaqti va shart-sharoitlari. SHaharlarning shakllanishida sug‘orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo‘li, geografik o‘rinning ahamiyati. Rayon shaharlarining cho‘l va voha sharoitida rivojlanishi. Mintaqa shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi, shahar va shaharchalarni tiplarga ajratish. Samarqand viloyati shaharlariga ta’rif. Navoiy viloyati shaharlari. Buxoro viloyati shaharlari tarkibi. Viloyat markazlarining boshqaruv roli. Ko‘pfunksiyali va bir funksiyali shaharlar. YAngi shaharchalarning rivojlanish muammolari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari**

Janubiy iqtisodiy rayon shaharlariga umumiy tavsif. Ularning vujudga kelish tarixi, shart-sharoit va omillari. Respublika urbanistik tarkibida tutgan o‘rni. SHaharlarning hududiy joylashuvi, shaharlar zichligi. SHaharlarning ixtisoslashuvi. Mintaqaning katta, o‘rta, kichik shaharlari, agroshaharlar. Termiz shahri: iqtisodiy, madaniy, ma’muriy, geostrategik ahamiyati. Rayon taraqqiyotida shaharlarning tutgan o‘rni va rivojlanish muammolari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*

Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**Quyi Amudaryo rayoni shaharlari**

Quyi Amudaryo mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o‘rni. SHaharlarning kelib chiqish tarixi, urbanistik tarkibi va tavsifi. SHaharlar shakllanishida irrigatsiya tarmoqlarining roli. Rayon shaharlari klassifikatsiyasi, shaharlar piramidasi. Rayonda shaharlar zichligi, shaharlar tasnifi, funksiyalari va funksional tiplarga ajratish. Quyi Amudaryo ekologik vaziyatining shaharlar rivojlanishiga ta’siri.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *pinbord, keys stadi, nilufar guli,*
Adabiyotlar: A1;A2; Q1;Q2;Q3;Q4.

**SHaxarlar geografiyasi fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining kalendar tematik rejasi**

| № | Ma’ruza mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| **1** | **Kirish. SHaharlar geografiyasining ob’ekti va predmeti, tadqiqot usullari** | 2 |
| 1.1 | Fanning o‘rganish ob’ekti va predmeti | |
| 1.2 | Maqsadi va vazifalari | |
| 1.3 | Fanning tadkikot usullari | |
| **2** | **SHaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi** | 2 |
| 2.1 | Ibtidoiy jamoa davrida odamlarning turmush tarzi | |
| 2.2 | Feodalizm davrida shaharlarning vujudga kelishi | |
| 3 | **SHaharlarning rivojlanish bosqichlari** | 2 |
| 3.1 | Qadimiy shaharlar | |
| 3.2 | O‘rta asr shaharlari | |
| 3.3 | YAngi shaharlar | |
| 4 | **SHahar hosil qiluvchi asosiy omillar** | 2 |
| 4.1 | SHaharlarning vujudga kelishida tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar, «shahar» tushunchasi va asosiy mezonlari | |
| 4.2 | Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi, Evropa, Osiyo (SHarq), Amerika mamlakatlarida shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy xususiyatlar. | |
| 4.3 | Er yuzidagi sivilizatsiya o‘choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo‘lgan makonlar. | |
| 4.4 | SHaharlarning vujudga kelishidagi asosiy omillar. SHaharlarning genetik tipologiyasi. | |
| 4.5 | SHaharlarning transport, iqtisodiy, demografik, siyosiy geografik o‘rni. | |
| 5 | **SHaharlar klassifikatsiyasi** | 2 |
| 5.1 | Oddiy va murakkab klassifikatsiya; o‘rta va kichik shaharlar, shahar va shaharchalarning 8 bosqichga bo‘linishi. | |
| 5.2 | BMT klassifikatsiyasi. SHaharlar klassifikatsiyasininig ahamiyati va mazmuni. SHaharlar piramidasi. Uning asosida mamlakat shaharlari | |

| | | |
|---|---|---|
| | rivojlanishidagi asosiy muammolarni aniqlash. | |
| 5.3 | O‘zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqalash, shaharlar ierarxiyasi. | |
| 5.4 | Zipfa-Styuart qonuni, shaharlarni rivojlantirishda uning ahamiyati, “millioner shaharlar”. | |
| 6 | **SHaharlarning funksiyalari** | 2 |
| 6.1 | Funksional o‘xshash jihatlari va farqlari, shaharlarning funksional tiplari va katta-kichikligi o‘rtasidagi qonuniy aloqadorlik. | |
| 6.2 | SHaharlarning funksional tiplarga ajratish usullari | |
| 6.3 | O‘zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo‘yicha guruhlarga ajratilishi. | |
| **7** | **SHaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari** | 2 |
| | SHaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. | |
| | Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. | |
| | Megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. | |
| | O‘zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. | |
| 8 | **SHaharsozlik va shaharlarning bosh rejasi** | 2 |
| 8.1 | SHaharsozlik va rayon planirovkasi haqida tushuncha. | |
| 8.2 | SHaharsozlik g‘oyalarining rivojlanishi: | |
| 8.3 | SHahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Hududni funksional zonalarga ajratish. | |
| 8.4 | SHahar aholisini hududiy tashkil etish. | |
| 8.5 | Bozor munosabatlari sharoitida shahar qurilishi masalalari. | |
| **9** | **Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari** | 2 |
| 9.1 | Urbanizatsiyaning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligi | |
| 9.2 | Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari | |
| 9.3 | jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasiga ko‘ra guruhlanishi. | |
| 9.4 | O‘zbek olimlarning O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va shaharlar rivojlanishiga qo‘shgan hissalari | |
| **10** | **O‘zbekiston shaharlari geografiyasi** | 2 |
| 10.1 | O‘zbekistonning turli mintaqalarida shaharlarning vujudga kelish va rivojlanish xususiyatlari. | |
| 10.2 | Respublika shaharlarining shakllanishida relef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. | |
| 10.3 | SHahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni. | |
| 10.4 | O‘zbekiston va uning hududlarida urbanizatsiya jarayoni, rivojlanish bosqichlari | |
| 10.5 | O‘zbekiston shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. | |
| 11 | **Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari** | 2 |
| 11.1 | Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalari tarkibi va tavsifi, shaharlashish darajasi, shakllanish tarixi. | |
| 11.2 | SHaharlar vujudga kelishidagi asosiy shart-sharoit va omillar | |
| 11.3 | Iqtisodiy rayon shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi | |

| | | |
|---|---|---|
| 11.4 | Toshkent aglomeratsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari | |
| 12 | **Farg‘ona mintaqasi shaharlari** | 2 |
| 12.1 | Farg‘ona mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o‘rni | |
| 12.2 | SHaharlar tarkibi va tavsifi. Tarixiy shakllanish bosqichlari | |
| 12.3 | SHaharlar shakllanishida tog‘oldi konussimon deltalarning roli. | |
| 12.4 | Rayonning shaharlar bilan ta’minlanish darajasi, shaharlar tasnifi, ixtisoslashuvi. | |
